

ABSURDIZMNING SHAKLLANISHI VA UNING ALBERT KAMYUNING “BEGONA” ASARIDAGI BADIY IFODASI

Soatova Aziza Sadridin qizi

Termiz davlat universiteti

O‘zbek filologiyasi fakulteti talabasi

azizasatova011@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20622778>

Annotatsiya: Ushbu maqolada absurdizm falsafasining shakllanish jarayoni, uning asosiy g‘oyalari hamda XX asr adabiyotidagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi absurdizmning nazariy asoslarini yoritish va uning badiiy ifodasini Albert Kamyuning “Begona” romani misolida ochib berishdan iborat. Tadqiqot davomida adabiy-tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, roman qahramoni Merso absurd insonning yorqin timsoli sifatida namoyon bo‘lib, uning jamiyat me‘yorlariga munosabati, hayot va o‘lim haqidagi qarashlari absurdizmning asosiy tamoyillarini aks ettiradi. Shuningdek, asarda insonning ma‘no izlashga intilishi va olamning befarqligi o‘rtasidagi ziddiyat badiiy jihatdan muvaffaqiyatli ifodalangan. Tadqiqot natijalari Kamyu ijodining absurdizm falsafasini tushunishdagi ahamiyatini hamda “Begona” romanining jahon adabiyotidagi o‘ziga xos o‘rnini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: absurdizm, Albert Kamyu, “Begona” asari, absurd falsafasi, Merso obrazi, ekzistensial muammolar, inson va jamiyat, hayot mazmuni, o‘lim motivi, badiiy talqin.

Annotation: This article examines the formation of the philosophy of absurdism, its main ideas, and its place in twentieth-century literature. The primary aim of the study is to explore the theoretical foundations of absurdism and reveal its artistic expression through Albert Camus’s novel *The Stranger*. The research employs literary-analytical and comparative methods. The findings show that the protagonist, Meursault, serves as a vivid embodiment of the absurd individual, while his attitude toward social norms and his views on life and death reflect the fundamental principles of absurdism. Furthermore, the novel artistically portrays the conflict between humanity’s search for meaning and the indifference of the world. The results highlight the significance of Camus’s works in understanding the philosophy of absurdism and demonstrate the unique place of *The Stranger* in world literature.

Keywords: absurdism, Albert Camus, *The Stranger*, Meursault, absurd individual, French literature, philosophical novel, meaning of life, individual and society, literary analysis.

Аннотация: В данной статье рассматриваются процесс формирования философии абсурдизма, её основные идеи и место в литературе XX века. Основной целью исследования является раскрытие теоретических основ абсурдизма и анализ его художественного воплощения на примере романа Альбера Камю «Посторонний». В исследовании использованы литературно-аналитический и сравнительный методы. Результаты показывают, что главный герой романа Мерсо является ярким воплощением абсурдного человека, а его отношение к общественным нормам и взгляды на жизнь и смерть отражают ключевые принципы абсурдизма. Кроме того, в произведении художественно раскрывается конфликт между стремлением человека найти смысл жизни и безразличием окружающего мира. Результаты исследования подчёркивают значение творчества Альбера Камю для

понимания философии абсурдизма и демонстрируют особое место романа «Посторонний» в мировой литературе.

Ключевые слова: абсурдизм, Альбер Камю, роман «Посторонний», Мерсо, абсурдный человек, французская литература, философский роман, смысл жизни, личность и общество, литературный анализ.

KIRISH

XX asr jahon falsafasi va adabiyoti insonning mavjudligi, hayot mazmuni hamda shaxsning jamiyatdagi o'рни bilan bog'liq masalalarga yangicha yondashuvlarning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, ikki jahon urushi, siyosiy beqarorlik va ijtimoiy inqirozlar natijasida insonning borliq haqidagi an'anaviy tasavvurlari izdan chiqdi. Bunday tarixiy va madaniy sharoitda insonning olamdagi o'рни, erkinligi, yolg'izligi va ma'naviy izlanishlari bilan bog'liq falsafiy qarashlar alohida ahamiyat kasb etdi. Mazkur jarayon natijasida vujudga kelgan muhim falsafiy yo'nalishlardan biri absurdizm hisoblanadi. Absurdizm insonning hayot mazmunini anglashga bo'lgan intilishi bilan borliqning bu intilishga befarq munosabati o'rtasidagi ziddiyatni ifodalovchi falsafiy qarashlar tizimidir. Ushbu yo'nalish insonning mavjudlik mohiyatini, uning erkin tanlovi va hayotdagi mas'uliyatini tahlil qilishga qaratilganligi bilan ajralib turadi. Absurdizmga ko'ra, inson yashayotgan olam mutlaq ma'no yoki oldindan belgilangan maqsadga ega emas. Shunga qaramay, inson o'z hayotining mazmunini mustaqil ravishda yaratishga va mavjudlikning murakkab jihatlarini anglashga intiladi. Shu sababli absurdizm nafaqat falsafiy tafakkur, balki badiiy adabiyot rivojiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Absurdizm g'oyalarining adabiyotdagi yorqin ifodalaridan biri fransuz yozuvchisi va mutafakkiri Albert Kamyu ijodida namoyon bo'ladi. Uning asarlarida insonning jamiyat bilan munosabati, ma'naviy tanlovi, hayot va o'lim haqidagi qarashlari chuqur falsafiy mazmun kasb etadi. Xususan, “Begona” romani absurdizmning badiiy talqini sifatida jahon adabiyotida alohida o'rin egallaydi. Asarda bosh qahramon Mersoning voqelikni qabul qilishi, ijtimoiy me'yorlarga nisbatan munosabati va hayotning ma'nosi haqidagi qarashlari absurd inson konsepsiyasini yoritishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda absurdizm masalasi adabiyotshunoslik sohasiida dolzarb ilmiy mavzulardan biri bo'lib qolmoqda. Insonning ma'naviy inqirozi, jamiyat bilan ziddiyatlari va shaxsiy erkinlik muammolari zamonaviy davrda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Shu jihatdan Albert Kamyu asarlarida ilgari surilgan g'oyalarni o'rganish nafaqat muayyan adabiy asarni tahlil qilish, balki inson va jamiyat munosabatlarini chuqurroq anglash imkonini beradi. Mazkur tadqiqotning maqsadi absurdizm falsafasining shakllanish jarayonini yoritish hamda uning asosiy tamoyillarini Albert Kamyuning “Begona” romani misolida tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot doirasida absurdizmning nazariy asoslari ko'rib chiqiladi, Kamyuning mazkur falsafaga oid qarashlari tahlil qilinadi hamda romandagi badiiy obrazlar va g'oyalar orqali absurdizmning ifodalanish xususiyatlari ochib beriladi. Shuningdek, asardagi shaxs va jamiyat munosabatlari, erkinlik, hayot mazmuni hamda o'lim masalalarining badiiy talqini tadqiq etiladi. Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, u absurdizmning nazariy va badiiy jihatlarini o'zaro bog'liq holda tahlil qilish orqali Albert Kamyu ijodining falsafiy mohiyatini yanada chuqurroq yoritishga xizmat qiladi. Olingan natijalar adabiyotshunoslik va falsafashunoslik yo'nalishlaridagi tadqiqotlar uchun muayyan nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu tadqiqotda absurdizm oqimining kelib chiqishi, uning g'oyaviy asoslari hamda Albert Kamyuning “Begona” romanida qanday badiiy ifoda topganini o'rganish uchun turli metodlaridan

foydalanildi. Shuningdek, mavzuni yoritishda jahon va o‘zbek adabiyotshunosligida absurd tushunchasiga berilgan turlicha baholar asosiy qo‘llanma qilib olindi.

Absurdizm va modernizm oqimining ijtimoiy va ruhiy sabablarini tushunishda rus olimi Yu. Borevning qarashlariga suyanildi. Uning “insoniyat birinchi marta yo‘lsiz, ma‘lum bir qolip va mezonlarsiz qoldi” degan fikri insonning dunyoda o‘z o‘rnini yo‘qotishi va ma‘naviy bo‘shliqqa tushib qolishini tushunishga yordam beradi. Albert Kamyu asarlaridagi tushkunlik va begonalashish kayfiyatini to‘g‘ri baholash uchun modernizmning XIX asr oxiri va XX asr boshlaridagi ijtimoiy inqirozlar, ayniqsa, jahon urushlaridan keyin odamlarda paydo bo‘lgan hayotga nisbatan ishonchsizlik va tushkunlik jarayonlari qiyosiy o‘rganildi. Shu bilan birga, absurd san‘atining mohiyatini anglashda ispan faylasufi O.I.Gassetning qarashlaridan foydalanildi. Gassetning fikricha, yangi san‘at insonning diqqatini tashqi dunyodagi voqealardan olib, butunlay uning ichki olamiga, ruhiyatiga qaratadi. Bu yondashuv Kamyu qahramoni Mersoning atrofdagi odamlarga va voqealarga nega befarq hamda "begona" bo‘lib qolganini tahlil qilishda muhim omil bo‘ldi.

O‘zbek adabiyotshunosligida absurd tushunchasiga bo‘lgan turlicha munosabatlar ham maqolada o‘z aksini topdi. Masalan, professor B. Sarimsoqov absurdni keskin tanqid qilib, uni “Absurd ma‘nisizlik” maqolasida shunchaki “ma‘nisizlik” va “inqiroz” belgisi deb baholagan. Biroq ushbu fikrga qarama-qarshi o‘laroq, professor Umarali Normatovning quyidagi qarashlari tadqiqotimiz uchun asosiy o‘lchov bo‘lib xizmat qildi: “Absurd, B. Sarimsoqov da‘vo qilganidek, aslo ma‘nisizlik emas, balki, aksincha, teran ma‘noga ega. Absurd adabiyot, san‘atda adashgan, aldangan, behuda, samarasiz mehnat-faoliyatga, ma‘nisiz qismatga mubtalo etilgan shaxsning fojiasini ochib berish, kutilmagan tomonlardan o‘ziga xos tarzda badiiy tahlil etishdan iborat”.¹ U Normatovning ushbu fikri Albert Kamyuning “Begona” asaridagi Mersoning taqdirini quruq ma‘nisizlik sifatida emas, balki hayotda adashgan va jamiyat qoliplariga sig‘magan insonning fojiasi sifatida chuqur tahlil qilishimizga zamin yaratdi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Tadqiqot jarayonida absurdizmning shakllanishi va uning falsafiy-adabiy asoslari tahlil qilinar ekan, bu oqim XX asr Yevropa intellektual muhitida inson mavjudligining ma‘nosizligi, hayotning beqarorligi hamda mutlaq haqiqatning yo‘qligi haqidagi qarashlar asosida yuzaga kelgani aniqlandi. Birinchi jahon urushi va undan keyingi ijtimoiy-siyosiy larzalar inson ongida an‘anaviy qadriyatlarga nisbatan ishonchning susayishiga olib kelgan bo‘lib, aynan shu tarixiy sharoit absurdistik dunyoqarashning shakllanishida asosiy omil bo‘lib xizmat qilgan. A. Kamyu, J.P. Sartr va S. Bekket kabi ijodkorlar bu yo‘nalishni falsafiy va badiiy jihatdan shakllantirgan asosiy vakillar sifatida namoyon bo‘ladi. Kamyu qarashlarida absurd insonning ma‘no izlash ehtiyoji bilan dunyoning befarqligi o‘rtasidagi uzilmas ziddiyat sifatida talqin etiladi. Ilmiy manbalar va badiiy tahlillarni qiyoslash absurdizmning faqat falsafiy g‘oya emas, balki badiiy tafakkur shakli sifatida ham shakllanganini ko‘rsatadi. Unda insonning ichki dunyosi, jamiyat bilan nomuvofiqligi va mavjudlikdagi yolg‘izligi markaziy mavzuga aylanadi. Ayniqsa, Kamyu ijodida bu g‘oya nazariy tushunchadan chiqib, konkret badiiy obrazlar orqali ifodalanadi va inson psixologiyasini ochib beruvchi tizimga aylanadi. Kamyu o‘zining har bir asarida inson va uning hayotdagi o‘rni, o‘limning haq ekanligi, hayotning mazmuni haqida fikr yuritadi va ana shu savollarga javob izlaydi.²

¹ Normatov U. Maqola // O‘zbekiston adabiyoti va san‘ati. – 2002. – 28-iyun.

² Hamdamov U., Qosimov A. Jahon adabiyoti: Darslik. – Toshkent: Akademnashr, 2024. – 189.

“Begona” qissasi tahlili Merso obrazining absurd inson sifatidagi mohiyatini yaqqol ochib beradi. Manbalar asosida aniqlanishicha, qahramon jamiyat tomonidan qabul qilingan hissiy va axloqiy meʼyorlarga ongli ravishda moslashmaydi. U onasining oʻlimi oldida jamiyat kutgan darajadagi qaygʻuni ifoda etmaydi, kundalik hayotini esa odatiy tarzda davom ettiradi. Ushbu holat uning axloqsizligi sifatida emas, balki ijtimoiy “rol oʻyinlari” dan voz kechishi sifatida talqin qilinadi. Natijada, Merso jinoyatning oʻzi uchun emas, balki jamiyat talab qilgan sunʼiy qonunlarga qoʻshilmagani uchun ham “begona” sifatida qabul qilinadi. Sud jarayoni tasviri asarda adolat tushunchasining qay darajada ekanligini koʻrsatib beradi. Jarayon davomida jinoyatning mohiyati emas, balki Mersoning shaxsiy xulq-atvori, uning oʻzini tutishi va ijtimoiy moslashuvi markaziy oʻringa chiqadi. Bu holat insonning ichki haqiqati jamiyat uchun qay darajada ahamiyatga ega ekanligini namoyish etadi. Shu orqali asarda jamiyatning axloqiy baholari koʻpincha real voqelikdan koʻra, odatga aylangan qarashlarga asoslanishi ochib beriladi. Shuningdek, Merso obrazi faqat ijtimoiy muhit bilan ziddiyatda emas, balki ichki ruhiy holat jihatidan ham murakkabdir. Bir soʻz bilan aytganda, Merso dunyo sir-sinoatlari, yashashdan asl maʼno nima ekanligi, hayot mohiyati nimadan iborat ekanligini toʻla anglab yetgan oramizdagi “noyob” odamlardan biridir. U oʻzini va dunyoni shunchalar anglab yetganki, mulozamat nima ekanligini hatto tasavvur ham qilolmaydi. U qalbida borini qanday boʻlsa shundayligicha yuzaga chiqaruvchi samimiy inson. Nimani oʻylasa va his qilsa, shuni gapiradi, koʻzboʻyamachilikni oʻziga ep koʻrmaydi.³ U hayotni aql bilan emas, balki bevosita sezgi va hissiyotlari orqali qabul qiladi. Bundan tashqari, Kamyu “Begona” asarida absurd gʻoyasini faqat mazmun orqali emas, balki til tuzilishi orqali ham ifodalaganini koʻrsatadi. Qisqa, uzilgan, bir-biri bilan juda kam bogʻlangan jumlar voqealarni boʻlak-boʻlak idrok etish imkonini yaratadi. Natijada, matn mantiqiy izchillikdan koʻra, bevosita sezgini va hissiyotni aks ettirishga yaqinlashadi. Bu uslub qahramon ongining tabiiy oqimini berish orqali absurdistik estetikani kuchaytiradi. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, Kamyu ijodida absurdizm faqat falsafiy qarash emas, balki inson va jamiyat munosabatlarini qayta talqin qiluvchi badiiy tizim sifatida shakllangan. “Begona” qissasi orqali muallif jamiyatning rasmiy axloqiy talablari bilan individual haqiqat oʻrtasidagi keskin ziddiyatni ochib beradi. Shu bilan birga, insonning hayot mazmuniga aniq javob topa olmasligi uning ichki beqarorligini yanada kuchaytiradi. Merso obrazining murakkabligi va ziddiyatlili adabiyotshunoslar tomonidan ham alohida taʼkidlanadi. Xususan, yozuvchi va adabiyotshunos Ulugʻbek Hamdam “Begona” qissasi va Merso obrazi haqida quyidagi fikrlarni berib oʻtadi: “..Men “Begona”ni judayam qiynalib oʻqiganman. Har safar shunday boʻlgan. Nega? Nazarimda, asar bosh qahramoni Mersoning dosh berish oʻta mushkul boʻlgan samimiyatidan tafakkur koʻzlarim qamashib ketgan boʻlsa, ajabmas... Ayrimlar uni xudosizlikda ayblashni xush koʻrishadi. Eʼtiqodsiz, deya qoʻlini bigiz qilishadi. Ha, biz ona Sharq farzandlarimiz. Tan olishim kerak, men ham qabul qilolmayman uning dahriyona fikrlarini. Koʻnglimga iztirob soladi ular. Boshiga tushgan barcha koʻrgiliklari ana shu tufaylidir, deb oʻylaganlarim bor. Lekin buning uchun Mersoni ayblashga, boshiga magʻzava toʻkishga maʼnaviy haqqim yoʻq deb bilaman oʻzimni...”.⁴ Bu fikrlar Mersoni bir yoqlama baholash mumkin emasligini, uni tushunish uchun anʼanaviy axloqiy mezonlardan tashqariga chiqish zarurligini koʻrsatadi.

³ Zaripova R. “Begona” va “Galatepaga qaytish”: qiyos va talqin (Ilmiy maqolalar). – Termiz: “Surxon-Nashr” nashriyoti, 2020. – B. 6.

⁴ Hamdam U. Jamiyat ichra samimiyat bahosi // ulugbekhamdam.uz/

Muhokama jarayonida ilmiy adabiyotlar bilan solishtirilganda, ayrim yondashuvlar absurdizmni faqat tushkunlik falsafasi sifatida talqin qilishi aniqlangan bo'lsa, Kamyu ijodida u inson erkinligini anglash shakli sifatida ham namoyon bo'ladi. Merso obrazi orqali muallif jamiyatdan butunlay ajralib chiqish g'oyasini emas, balki soxta, majburiy rollardan voz kechish zaruratini ilgari suradi. Shu jihatdan absurd inson inkor qiluvchi emas, balki mavjudlikni yangi nuqtayi nazardan idrok etuvchi shaxs sifatida gavdalanadi. “Begona” qissasi absurdizmning badiiy ifodasi sifatida inson, jamiyat va haqiqat o'rtasidagi murakkab munosabatlarni ochib beradi hamda XX asr adabiyotida yangi falsafiy-estetik yo'nalishlarning shakllanishiga asos bo'lgan muhim asarlardan biri sifatida baholanadi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari absurdizm XX asrning murakkab ijtimoiy-tarixiy va ma'naviy sharoitlari ta'sirida shakllangan falsafiy-adabiy yo'nalishlardan biri ekanligini ko'rsatdi. Ushbu oqim insonning mavjudlik mohiyati, hayot mazmuni, erkinlik va yolg'izlik kabi masalalarni yangicha talqin qilishga xizmat qilgan. Absurdizmning nazariy asoslari insonning ma'no izlash ehtiyoji bilan olamning befarqligi o'rtasidagi ziddiyatga tayanishi aniqlanib, bu g'oyalar Albert Kamyu ijodida o'zining mukammal badiiy ifodasini topgani kuzatildi. Tahlillar natijasida “Begona” qissasi absurdistik dunyoqarashning eng yorqin badiiy namunalariidan biri ekanligi aniqlandi. Asardagi Merso obrazi jamiyat tomonidan qabul qilingan an'anaviy axloqiy va hissiy me'yorlarga bo'ysunmaydigan, mavjudlikni o'ziga xos tarzda idrok etadigan absurd inson timsoli sifatida namoyon bo'ladi. Qahramonning jamiyat bilan ziddiyati uning jinoyatidan ko'ra ko'proq dunyoni qabul qilish usuli va hayot haqidagi qarashlari bilan bog'liqligi kuzatildi. Shuningdek, Kamyu absurd g'oyasini nafaqat obrazlar tizimi, balki asarning til va uslub qurilishi orqali ham badiiy jihatdan ifodalaganligi ma'lum bo'ldi.

Tadqiqot davomida absurdizmning badiiy ifodasi inson va jamiyat, shaxsiy haqiqat va ijtimoiy me'yorlar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni yoritishda muhim estetik vosita vazifasini bajarishi aniqlandi. Shu jihatdan, “Begona” qissasi nafaqat fransuz adabiyoti, balki jahon adabiyotida ham inson mavjudligi bilan bog'liq falsafiy muammolarni yoritgan muhim asarlardan biri sifatida baholanadi. Kelgusidagi tadqiqotlarda absurdizm g'oyalarining boshqa adabiy oqimlar bilan o'zaro aloqadorligini, Kamyu asarlarida inson erkinligi va axloqiy tanlov masalalarining badiiy talqinini hamda absurdistik dunyoqarashning zamonaviy adabiyotdagi aks etish shakllarini yanada chuqurroq o'rganish maqsadga muvofiqdir. Bunday izlanishlar absurdizmning nazariy mohiyatini kengroq yoritish va uning adabiy-estetik ahamiyatini yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Hamdamov Ulug'bek, Qosimov Abdug'opir. Jahon adabiyoti (Darslik). – Toshkent: “Akademnashr”, 2024. – b.320
2. Hamdamov Ulug'bek, Qosimov Abdug'opir. Jahon adabiyoti (O'quv qo'llanma). – Toshkent, 2017. – b.352
3. Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. — Toshkent: O'zbekiston, 2002.
4. Kamyu A. Begona: Roman. – Toshkent: “Turon zamin” nashriyoti, 2023.
5. Zaripova R. “Begona” va “Galatepaga qaytish”: qiyos va talqin (Ilmiy maqolalar). – Termiz: “Surxon-Nashr” nashriyoti, 2020.
6. Великовский С. Проклятые вопросы Камю. Камю А. Избранное. – М.: Правда, 1990

7. Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug'ati. – T.: Akademnashr, 2010.
8. Normatov U. Maqola // O'zbekiston adabiyoti va san'ati. – 2002. – 28-iyun.
9. Hamdam U. Jamiyat ichra samimiyat bahosi // ulugbekhamdam.uz/